

Date: 29th October-2025

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING
AHAMIYATI**

Ahmadjonova Ozoda Alisher qizi

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda boshlang'ich ta'lim jarayonida didaktik o'tinlardan foydalanish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Didaktik o'yin, ta'lim, dars, pedagog, o'quvchi, boshlang'ich ta'lim.

Bugun davlatimizning ta'lim tizimi, nihoyatda katta islohotlar markazini egallab turibdi. Hurmatli yurtboshimiz uzluksiz ta'lim tizimining har bir bosqichini ham moddiy, ham ma'naviy tomonlama modernizatsiya qilinishiga o'zi bosh qosh bo'lib, islohotlar etakchisi sifatida dunyo ommasining olqishlariga sazovor bo'lmoqda. Dunyo pedagogika sohasining etuk olimlari bolaning bilim olishida eng muhim davr bu boshlang'ich ta'lim ekanligini hisobga olsak, boshlang'ich sinflarda o'tiladigan darslar o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. "Agar mendan sizni nima qiynaydi? deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob bergan edi hurmatli yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang'ich sinflardan oq «dars» degan muqaddas so'zdan bezib qolmasliklari lozim. Bugungi kunda o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali o'qituvchilar turli didaktik o'yinlardan foydalanishmoqda.

O'yin faqatgina vaqtning o'tishi yoki bolalar uchun shunchaki bir odatiy hol emas. O'yin davomida bolaning dunyoqarashi va fikrlash qobiliyati rivojlanib boradi. Birinchi sinfga qabul qilinib, maktab ostonasiga ilk qadam qo'ygan bolaning faoliyatida ham o'yin asosiy o'rinda turadi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchi faoliyatidan o'yinni siqib chiqarmasdan maqsadga muvofiq foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'limni didaktik o'yinlarsiz tasavvur qilishimiz qiyin.

Didaktik o'yinlar o'zining shakli jihatidan, asosan, bog'chada o'ynaladigan ijodiy o'yinlardan ham, o'qituvchi o'zi hikoya qilib berish yo'li bilan tushuntiradigan va o'quvchilarni birma-bir so'rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan o'yinlardan ham bir tomonlama farq qiladi. Didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish maqsadida jon-dili bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqni albatta bajarishga odatlanib qoladilar, natijada ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqish orta boradi. Didaktik o'yinlar har bir darsning maqsadini, har bir mashqning maqsadi va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi. Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligi, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish,



Date: 29th October-2025

teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning o'ylab olishiga va aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yin qoidalarini o'zlari bajarishlariga undaydi. Didaktik o'yinlarning bu tarzda tuzilish xususiyatlari o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o'yin vaqtida zo'r qiziqish bilan harakat qiladilar.

O'yin vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida o'quv va mehnat faoliyatini tashkil etish va insonlar bilan munosabatga kirishishga oid ruhiy xususiyatlar shakllanadi. O'yin orqali bolalar borliqni o'rganadi va dunyoni o'zgartirishga harakat qiladi. Shunday qilib o'yin inson faoliyatining shakllanishiga asos soladi. O'yinda inson borliqni aks ettirish qobiliyatini namoyon qiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati shundaki, unda ilk bor bolaning dunyoga ta'sir etish ehtiyoji paydo bo'ladi va shakllanadi. Maktab yillarida o'yin shakllari yanada kengroq rivojlanadi. O'quvchilarning o'yin faoliyati juda ko'p soha olimlarining, ya'ni, faylasuflar, sotsiologlar, biologlar, san'atshunoslar, etnograflar, ayniqsa, pedagoglar va psixologlarni qiziqtiradi. Psixologiyada bola psixikasining rivojlanishida o'yining hal qiluvchi ahamiyatga ega deb qaraladi. Faqat o'yindagina bolada shaxsning hamma tomonlari birlikda va o'zaro ta'sirda shakllanadi. O'yingina bola psixikasida rivojlanishning yuqoriroq stadiyasiga o'tish uchun muhim zamin yaratadi. Didaktik o'yin o'rganilayotgan voqea va hodisalarning imitatsion modeli yaratilishi sohasidagi faol faoliyatdir. O'yinning boshqa faoliyat turlaridan muhim farqi shundaki, uning predmeti inson faoliyatidir. Didaktik o'yinda faoliyatning asosiy turi hamkorlikdagi o'quv faoliyatidir. Didaktik o'yinda o'quvchilarning o'zlashtirishini hisobga olgan ta'limiy vazifalarning bo'lishi muhimdir. Rahbarlik qiluvchi kattalar didaktik o'yinlarning u yoki bu shaklini yaratar ekan, uning bolalar uchun qiziqarli va ular diqqatini to'playdigan turlariga e'tibor qaratishlari lozim. Didaktik o'yinlarning boshqa faoliyat turlaridan farqlanadigan muhim belgilari uning tarkibi qat'iyligidir. Didaktik o'yinlarning tarkibiy komponentlari quyidagilar: o'yin mantiqi, o'yinning harakati, o'yin qoidasi. O'yin mantiqi asosan uning sarlavhasida aks etadi.

Didaktik o'yin o'rganilayotgan voqea va hodisalarning imitatsion modeli yaratilish sohasidagi aktiv faoliyatdir. O'yinning boshqa faoliyat turlaridan muhim farqi shundaki, uning predmeti inson faoliyatidir. Didaktik o'yinda faoliyatning asosiy turi hamkorlikdagi o'quv faoliyatidir.

Hozirgi davrda pedagoglar tomonidan tayyor mazmun va qoidalarga ega bo'lgan o'yinlar yaratilmoqda. Bola shaxsida ma'lum sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan o'yinlarda aniq qoidalar berilgan bo'ladi. Tayyor qoida va mazmunga ega bo'lgan o'yinlarga quyidagi xususiyatlar xos bo'ladi:

- o'yin g'oyasi va vazifasi o'yin ta'sirida amalga oshiriladi;
- o'yin g'oyasi (yoki vazifasi) va o'yin ta'siri o'yin mazmunini tashkil etadi;
- o'yin ta'siri va o'ynayotganlar munosabatlari o'yin qoidasi asosida boshqariladi;
- qoidalar va tayyor o'yin mazmuni o'quvchilarni o'yinni mustaqil tashkil etishlariga yordam beradi.



Date: 29th October-2025



Didaktik o'yinlar bir necha bosqichlarga bo'linadi. Har bir bosqichda bolaning ma'lum bir imkoniyatlari namoyon bo'ladi. O'qituvchining bu bosqichlar xarakterini bilishi didaktik o'yinlarning samaradorligini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Birinchi bosqichda bolada o'ynash ishtiyoqi paydo bo'ladi va o'yinda faollik ko'rsata boshlaydi. Ana shu bosqichda bolani o'yinga qiziqitirish maqsadida topishmoqlar, tez aytishlar, aytishuvlar yoki suhbatlar tashkil qilish mumkin. Ikkinchi bosqichda bola o'yin topshiriqlarini bajarish, qoidaga rioya qilishga o'rganadi va o'yinda qatnashishga kirishadi. Bu bosqichda bolalarda to'g'riso'zlik, maqsadga erishishga astoydil kirishish, irodaviylik, o'yinda yutqizish alimini ham yengabilish, o'z muvaffaqiyatidangina emas, o'rtoqlari muvaffaqiyatidan ham quvonabilish kabi ijobiy sifatlar shakllanadi. O'yinning uchinchi bosqichida bola o'yin qoidalarini yaxshi biladi. U endi o'yinga ijodiy yondoshadi, o'zi yangiliklar kiritadi, mustaqil ijodiy izlanadi. O'yinda qatnashish jarayonida u tez javob topish, yashirish, izlash, yugurish, tasvirlash va boshqa shu kabi vazifalarni bajaradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi fonetikadan bir qator bilimlarni egallaydilar. Unli, undosh tovushlarni talaffuz qilish va taqqoslash asosida farqlaydilar. Undosh tovushlarning jarangli va jarangsiz talaffuz etilishi, jufti bor va jufti yo'q jarangli va jarangsiz undosh tovushlar haqida amaliy bilim oladilar. Bu borada boshlang'ich sinflarda qo'llaniladigan tekshirish metodi tovushlarning jarangli yoki jarangsiz ekanligini anglab olish imkonini beradi. Bu o'z navbatida to'g'ri yozishda qo'l keladi. Shuningdek bu sinflarda bo'g'in va uning turlari, urg'uli va urg'usiz bo'g'inlar, tovushlarning birbiriga ta'siri haqida amaliy bilim oladi. Bularning barchasini o'zlashtirib olish bir qator murakkabliklar tug'diradi. Shu tufayli boshlang'ich sinflarda fonetikaga oid didaktik o'yinlardan foydalanish qo'l keladi.

„So'z tuzish" o'yini . O'yin savod o'rgatish davrida o'tkaziladi. Bu o'yinlarni bajarish o'quvchilarga tovushning so'z hosil qilishidagi ahamiyatini to'laroq tushunib olish imkonini beradi. O'quvchilar ushbu o'yinda ishtirok etar ekan, so'zlarning turli- tuman usullar bilan hosil bo'lishi katta qiziqish uyg'otadi. O'zlari hosil qilgan yangi so'zlardan bevosita zavq olishga muvaffaq bo'ladi. So'z tuzish o'yini savod o'rgatishning tarkib – tahrir (analitik – sintetik) tovush metodi asosida bajariladi. Ushbu metodning ikkinchi qismi tuzish, qurish, birlashtirish singari ma'nolarni bildiradi. So'z tuzish o'yini ham aynan so'zga xilma-xil tovushlarni, bo'g'inlarni qo'shish orqali hosil bo'ladi. Bu o'yinni bajarishda so'zga turli hil usullar bilan tovush qo'shib yangi so'z hosil qiladi.

O'quvchilarni fanning yangi yutuqlari bilan tanishtirish o'quv dasturlari doirasini kengaytirish ularni ilmiy, ijodiy izlanishlar doirasi bilan tanishtirish o'quvchilarning bilishga qiziqishlarini oshiradi. Hamma o'quv materiallari ham o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lavermaydi. Bunday hollarda bolalarni ta'lim jarayoniga qiziqishini oshirishning birdan bir yo'li didaktik o'yinlardan foydalanish va ularni tashkil etishdir. O'quvchilarda o'qishga ishtiyoqni oshirish uchun ularni ta'limga qiziqitirish lozim. Buning uchun esa o'quvchi ta'lim jarayonidan qiziqarli tomonlarni topishi va bu jarayon o'z ichiga o'quvchini qiziqitiraoladigan materiallarni olishi lozim. Buning yo'li ta'lim jarayoniga didaktik o'yinlarni kiritishdir.

Date: 29th October-2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. T. , Nurullaeva Sh. , Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar.–Toshkent: Ilm ziyo, 2004. –80 b.
2. A.I.HAYITOV. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integr atsiyasi (Uslubiy qo'llanma). TOSHKENT – 2021.
3. G'afforova T. , Nurullayeva Sh. Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida didaktik o'yinlar va mustaqil ishlar. –Qarshi: Nasaf, 2003. –54 b.
4. Mirzayev J.O., Beknazarova X.S. Yakubova G.L. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida miqdoriy tushunchalarni shakllantirish usullari. Research And Education. 2023/11/30 295-299 betlar.
5. Yunusov Q. Ona tilidan ta'limiy o'yinlar. Andijon, 2005.

